


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
2022- yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)

2022- yil yanvar-iyun oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2748,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **17,5 %** ga o'sishi ta'minlandi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati Tashish va saqlash sohasida – 79,1 %, San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida - 31,7 %, Bank, sug'urta va vositachilik faoliyatida 30,8 %, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida - 24,1 %, Axborot va aloqa sohasida 24,0 %, sanoat sohasida - 12,0 %, Ta'lim sohasida 11,0 % kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-iyul oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqi, ming so'mda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 - yil yanvar-iyun, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Ish haqi miqdori ming so'm O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. ming so'mda

	2021-yil yanvar-iyun	2022-yil yanvar-iyun	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha - jami	2339,5	2748,1	117,5
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2467,6	2763,1	112,0
Qurilish	2296,4	1879,6	81,8
Savdo	2757,3	2939,6	106,6
Tashish va saqlash	1796,9	3218,1	179,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2155,6	1956,2	90,7
Axborot va aloqa	3461,1	4293,0	124,0
Bank, sug'urta va vositachilik	6064,1	7934,0	130,8
Ta'lim	2192,1	2432,3	111,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1897,4	2302,8	121,4
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	3060,8	4031,2	131,7
Boshqa faoliyat turlari	2570,4	3227,2	125,5

Ish haqi. 2022- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 763,1** ming so'mni tashkil etib, 2021 - yilning mos davriga nisbatan **12,0 %** ga o'sdi.

Sanoat sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi
(ming so'mda)






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod tumani – **140,0 %**, Paxtakor tumani - **124,8 %**, Zarbdor tumani - **124,5 %** va Jizzax shahri - **102,2 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zomin - **83,5 %**, G'allaorol - **76,8 %**, Sharof Rashidov - **71,9 %** hamda Forish – **66,3 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1 879,6** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **81,8 %** ga pasaydi.


O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:



Qurilish sohasi bo'yicha bir qator tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l **-150,5 %** va Jizzax sh. **-102,0 %** tumanlarida viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkich kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Zomin – **84,6 %** va Zarbdor - **77,0 %** tumanlarida kuzatildi.





Savdo faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 939,6** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **6,6 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumaniga – **160,0 %** to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Jizzax shaxri -90,8 % va Sh.Rashidov – 43,2 % tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 432,3** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **11,0 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – 129,4 %, Baxmal – 106,3 %, Zarbdor – 103,2 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Zomin – 99,6 %, Do'stlik – 98,2 %, Arnasoy – 95,3 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 302,8** ming so'mni tashkil etib, 2021 - yilning mos davriga nisbatan **21,4 %** ga o'sdi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Sog'liqni sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlari Zomin – 114,1 %, Jizzax shahri – 107,6 %, Mirzacho'l – 107,5 %, Do'stlik -104,2 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ba'zi tumanlarda viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Hususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Zafarobod – 97,5 %, G'allaorol – 93,2 %, Sharof Rashidov – 92,6 %, Zarbdor – 86,0 % tumanlarida kuzatildi

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





San'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022- yil yanvar-iyun qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida bo'yicha ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4 031,2** ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **30,8 %** ga o'sdi.




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **134,2 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Sh. Rashidov - **46,7 %**, Zarbdor - **45,3 %**, Do'stlik - **44,7 %** va Baxmal - **43,4 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **3 512,9** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(127,8 %)**) ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumanida **2 657,2** ming so'mni (**96,7 %**), Baxmal tumanida **2 617,6** ming so'mni (**95,3 %**), va Zarbdor tumanida **2584,8** ming so'mni (**94,1 %**) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming. so'mda


	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar- iyun	O'sish sur'ati, %.
Jizzax viloyatida	2339,5	2748,1	117,5
Jizzax shahri	2950,1	3512,9	119,1
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	1966,0	2247,5	114,3
Baxmal	2260,2	2617,6	115,8
G'allaorol	1814,2	2224,3	122,6
Sharof Rashidov	1942,4	2212,9	113,9
Do'stlik	2075,1	2292,1	110,5
Zomin	2155,6	2499,6	116,0
Zarbdor	2091,9	2584,8	123,6
Zafarobod	2166,0	2657,2	122,7
Mirzacho'l	1938,2	2339,7	120,7
Paxtakor	2140,1	2500,2	116,8
Forish	1890,9	2120,1	112,1
Yangiobod	2032,7	2177,9	107,1

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi (foizda)



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat ish haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022- yil 20- maydagi PF-138-sonli farmoniga asosan 920,000 so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(72) 222-81-39